TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

G. A. Kurbonova	The Meaningful Life Journey of Sahibqiran Amir Temur Across the Ages	85
N. B. Kuvatova	The Educational Environment in Higher Education Systems: Theoretical Perspectives and Effectiveness	91
F. R. Khasanova	Implementing Virtual Tours and Intelligent Technologies in Museums of Uzbekistan: Challenges and Prospects	95
F. Muratova	Contemporary Requirements for Professional Practice in Psychology: Challenges and Strategies for Overcoming Them	98
D. Dj. Rashidova	The Role of Lifelong Learning in Human Capital Development	102
Y. Saburova	The Significance of the Third Renaissance in Societal Development	104
Sh. Kh. Buriyev	The Strategic Importance of Preserving Cultural Heritage in Societal Development: The Evolution of the Conservation, Restoration, and Preservation System for Museum Collections in Uzbekistan (1991–2025)	107
H. T. Usmonov	The Art of Calligraphy and Beautiful Handwriting	113
N. A. Yuldasheva *N. Tursunaliyeva* *S. Sh. Bekturdiev*	Digital Transformation in Primary Education: Contemporary Technologies and Future Development Prospects	116
S. V. Yuldashev *A. Sharafiddinov*	History Horse Breading in Ferghana Valley	120
M. Ch. Saidova	The Effectiveness of Peer Support Programs in Preventing Bullying in School Environments	124
Sh. Sh. Uzakov	Conceptual Foundations and Empirical Analysis of Poverty Reduction Through Improving the Entrepreneurial Environment	128

The Significance of the Third Renaissance in Societal Development

Yangiljon Saburova (Master Student)[1]

[1.] National Institute of Fine Arts and Design
named after Kamoliddin Behzod
Tashkent, Uzbekistan

"By defining the Third Renaissance as a strategic objective, we are elevating it to the level of a national idea."

Shavkat Mirziyoyev
President of the Republic of Uzbekistan

Abstract.
This article explores the essence and meaning of the concept of the Renaissance, with a primary focus on the steps being taken by Uzbekistan toward the Third Renaissance. In particular, it analyzes the initiatives, reforms, and practical measures implemented by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev. It also examines the development of science, education, culture, and innovation as key factors in strengthening the foundation of the Third Renaissance.
Keywords: renaissance, third renaissance, age of renaissance, jadid movement, reforms, future generations.

Uchinchi renessansning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati

Yangiljon Saburova (1-bosqich magistrant)[1]

[1.] Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik
va dizayn instituti
Toshkent, O'zbekiston

"Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz"

Shavkat Mirziyoyev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Annotatsiya.
Bu maqolada Renessans tushunchasiga izoh berilgan, asosiy e'tibor O'zbekistonning Uchinchi Renessans uchun tashlayotgan qadamlariga qaratilgan. Maqolada Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessans yo'lida qilayotgan ishlari, islohotlari asosiy o'rin tutadi.
Kalit so'zlar: renessans, uchinchi renessans, uyg'onish davri, jadidlar, islohotlar, kelajak avlod

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mustaqilligimizning 29 yilligi munosabati bilan so'zlagan tabrigida alohida ta'kidlab o'tdiki, bizning asosiy maqsadimiz – Uchinchi Renessans. Bu bejizga emas, albatta. Bu mamlakatimizning har bir sohasi qaytadan uyg'onishi, mudroq jabhalarga jon kiritish lozimligini ilgari suradi. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida ish boshlagan birinchi kunidanoq Uchinchi Renessans jumlasini ro'yobga aylantirishga kirishdi.

Renessansning tarixi, mohiyati, ahamiyati. Shu paytga qadar yozilgan maqolalarda, aytilgan fikrlarda "Renessans" so'zining ma'nosi bir necha bor ta'kidlangan. Shunday bo'lsada, fikrimiz batafsil bo'lishi uchun yana bir bor to'xtalamiz. "Renessans" fransuz tilidan olingan bo'lib, "qayta tug'ilish", "uyg'onish" degan ma'nolarni anglatadi. Tarixdan xabaringiz bo'lsa, butun dunyo bir nechta Renessans bosqichini boshdan kechirganini bilasiz. Madaniyat, ma'naviyat, san'at, umuman, davlatning barcha sohalarida jonlanish yuzaga kelsa, bilingki, bu ham bir Renessans. Renessansning o'z tarixi bor. Bu tushuncha bizga sharqdan meros. Aniqrog'i, dastlab Renessans davri VII—VIII asrlarda Xitoyda boshlangan. Keyin esa Hindistonga ko'chgan. O'z navbatida IX-XII asrlarda islom mamlakatlari qayta uyg'onish davrini boshdan kechirgan. Biz faxrlanadigan ajdodimiz – Amir Temur davrida esa Renessans butun mohiyati bilan namoyon bo'lgan. Shavkat Mirziyoyev bejizga biz Uchinchi Renessansga munosib xalqmiz, degan tushunchani ilgari surmagan. Chunki millatimiz azaldan ma'naviy tomonlama yuksaklikka intilgan.

Hatto Zahiriddin Muhammad Bobur o'zga yurtda, Hindistonda shunday muhit yaratdiki, hind xalqi Bobur tufayli o'ziga xos Renessansni boshdan kechirdi. Buning isboti o'laroq Javoharlal Neru Boburni Renessansning tipik vakili, deb baholagan. Uchinchi Renessansni o'z oldiga katta maqsad qilib qo'ygan Yangi O'zbekistonda milliy tasviriy va amaliy san'atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ajralmas qismi sifatida qaralyapti. Davlat rahbari va hukumatning tasviriy va amaliy san'at sohasiga bunday e'tibori natijasida xalqaro jamoatchilikka yurtimizning milliy badiiy boyliklarini hamda rassom, ijodkorlarining ijod namunalarini, zamonaviy tasviriy va amaliy

san'atda erishilayotgan yutuqlarni mavjud rang-barangligi bilan ko'rsatishga keng imkoniyat beradigan o'ziga xos tizim shakllandi.

Sohada yaratilayotgan munosib sharoitlar Xalqaro an'anaviy Tasviriy va amaliy san'ati festivali, Toshkent xalqaro zamonaviy san'at biyennalesi, Toshkent xalqaro amaliy san'at biyennalesi hamda "Toshkent quvonchlari" bolalari rasmlari biyennalesi, Xalqaro haykaltaroshlik simpoziumi yuqori darajada o'tkazilishiga xizmat qilmoqda. Ushbu san'at anjumanlari tufayli ko'plab iste'dodlar kashf etildi, zamonaviy tasviriy va amaliy san'at asarlarini namoyish qilish, bu borada xalqaro tajriba almashinuvini kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ular Yangi O'zbekistonda sohaga ko'rsatilayotgan e'tiborni xalqaro miqyosda keng miqyosda targ'ib qilishda, ommalashtirishda, turli mamlakatlarning soha vakillari, usta-hunarmandlari o'zaro muloqot o'rnatishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz – yuksalishga intilgan xalqmiz. Amir Temur davridan so'ng xalqimiz ko'plab mustabid tizimlarni boshdan kechirdi. Ammo har doim, har safar ajdodlarimiz orasida ma'naviy yuksalishga intiladiganlar topildi. Har safar ota-bobolarimiz xalqni uyg'onishga, o'zligini anglashga undadi. Masalan, Amir Temurdan oldingi davrni olaylik. Najmiddin Kubro o'zining "Dil ba yoru dast ba kor", ya'ni "Qo'ling ishda, qalbing Allohda bo'lsin", degan shior bilan yashagan. Bu ham, albatta, ma'naviy uyg'onishga xizmat qiladigan harakat edi. Ya'ni o'z davrida qabih ishlarga berilib, nafs quliga aylanib, nafs yo'lida hatto o'zligini ham unutgan xalqni uyg'otish, xalqni ma'naviy mustaqillikka erishtirishga undar edi. Shunisi e'tiborga loyiqki, uzoq yuz yillar davomida xalqimizning ma'naviy uyg'onishga bo'lgan harakatini cheklovchilar, xalqimizning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchilar topilgan.

Ammo har doim yangi qahramonlar, yangi ma'naviyat kurashchilari yuzaga chiqavergan. Hech qachon chekinilmagan. Jadidlar davrini qisman Renessans davri deyish mumkin. Sababi Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Mustafo Cho'qayev, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa ko'plab ajdodlarimiz "bosh ko'tarishdi". Ular xalqni mudroq holatni tark etib, uyg'onishga da'vat etishdi. Bu esa qisman samara berdi.

Sh.Mirziyoev "Uchinchi renessans" haqida. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov 1991 yil 31 avgustda davlatimiz mustaqillikka erishganini rasman e'lon qildi. Ayni shu kunda biz chinakam Renessans davriga qadam qo'ydik. 1 sentyabr mustaqillikning bayram qilinishi o'laroq Renessans davrining birinchi kuni bo'ldi. Xo'sh, O'zbekistonda uchinchi Renessans qanday amalga oshiriladi? Mamlakatda birinchi va ikkinchi Renessans qachon bo'lgandi? Prezident Shavkat Mirziyoyev 1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bunga aniqlik kiritgandi. "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz.

Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi", degandi Shavkat Mirziyoyev. Davlat rahbari so'zi davom etarkan, buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlarini keltirgandi. "Men yuqorida Aristotelning fikrlarini bejiz eslamadim. Hammangizga yaxshi ma'lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. "Islom madaniyatining oltin asri" deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi. O'n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi.

Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi", deydi Prezident.

Uchinchi renessansga poydevor. O'zbekiston Uchinchi Renessansga tayyormi? Bu borada nimalar qilindi va qilinmoqda? Davlatimiz rahbari ¬prezidentlik ¬faoliyatining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimiz uchun eng katta ¬muammo, bu — ¬bugungi zamon talablariga mos kadrlar yetishmasligini, barcha sohada innovatsion va kreativ fikrlaydigan, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirgan mutaxassislarga ehtiyoj juda yuqori ekanini ta'kidladi. Bu muammoning eng maqbul yechimlaridan biri topildi. Shavkat Mirziyoyev "prezident maktablari" g'oyasini ilgari surdi va 2019 yilning 10 sentyabr kuni Toshkentda birinchi prezident maktabi ochildi. O'z navbatida boshqa viloyatlarda ham bunday maktablar qurilishi rejalashtirildi. Xususan, 2021 yilda Andijon, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida ¬Prezident maktablari tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, Yangi Renessans davri uchun kuchli bilimga ega bo'lgan yangi avlod kerak. Har qanday taraqqiyotning negizida ma'naviyat yotadi, demakki, Prezident maktablarida ta'lim olgan yoshlar kelajak poydevorlari, Uchinchi Renessans kafolatidir. Shavkat Mirziyoyevning o'zi Prezident maktablari haqida shunday fikr bildirgan: "Bugungi kunda yurtimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga, butun jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Yangi O'zbekistonimizni ¬yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarishdek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o'z ¬Vatanini jonidan ortiq sevadigan, uning yorug' kelajagi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan, fidoyi yoshlarni ¬tarbiyalash orqali erishamiz. Ana shunday salohiyatli va barkamol ¬kadrlarni tayyorlash maqsadida respublikamizning har bir hududida mutlaqo zamonaviy shakldagi ta'lim muassasalari — Prezident maktablarini tashkil etdik. Men ishonaman, bu maskanlar jonajon O'zbekistonimizning ertangi taqdirini o'z qo'liga olishga, globallashuv davrida keskin bellashuv va raqobatlarda g'olib

bo‘lishga qodir shaxslarni — yangi Xorazmiylar, Farg‘oniylar, Beruniylar, Ulug‘beklarni tarbiyalab yetishtiradi. Poytaxtimiz Toshkent ¬shahrida ¬faoliyat boshlagan Prezident maktabi xalqimizning ulug‘vor va olijanob orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarishda barchaga ¬namuna bo‘lishiga tilakdoshman”.

2020–2021 yillarda 43 ta yangi ishlanmalarni, 2021–2022 yillarda yuqori samarador 38 ta ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida ilmiy hajmdor mahsulotlar hajmi va innovatsion mahsulotlar turlari kengaytiriladi. Hududiy iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolarning ilmiy yechimini ta’minlashga yo‘naltirilgan 2021 yilda 14 ta loyihani, 2022 yildan boshlab har yili ilmiy loyihalar sonini 50 foizga oshirib borishni nazarda tutuvchi ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlar amalga oshiriladi. Shu jumladan, hududdagi muammolar yechimiga qaratilgan mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni amalga oshirish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yiladi. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan noyob xalqaro ilmiy va ta’lim majmuasidir. Markaz O‘zbekistonning islomgacha bo‘lgan va islom davrlaridagi boy madaniy merosini fan, ta’lim va raqamli texnologiyalardagi zamonaviy yutuqlar bilan birlashtiradi. Uning faoliyati mintaqaning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasini o‘rganish, saqlash va targ‘ib qilishga qaratilgan. Bugun o‘zligimizni anglash yo‘lida katta tantana bo‘ldi. Ming shukrki, to‘qqiz yil davomida niyat qilib, izlanib, harakat qilib, xalqimizning kimligini, tariximizni haqqoniy aks ettiradigan majmuani barpo etdik. Bu yerga kelgan har bir inson, ayniqsa yoshlarimiz, qanday ajdodlar avlodi ekanimizni bilishi, anglashi kerak. Bu ulkan loyiha oddiy bir chizma emas. Uni yurak chizgan, mehr chizgan, orzu va armonlar chizgan. Qur’oni karim saqlanadigan muqaddas zal ham shunchaki yaratilgan emas. U yurakdan tug‘ilgan, xalqimizning orzu-intilishlari va buyukligini namoyon etish istagidan paydo bo‘lgan maskandir. Bu loyiha buyuk xalqimizning asl qiyofasini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ezgu niyatlar mahsulidir, – dedi prezident. (3) Islom sivilizatsiyasi markazi maydoni va qamroviga ko‘ra, dunyoda islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyalarini o‘rganish hamda targ‘ib etishga qaratilgan yirik majmualardan biridir. U Toshkentning mashhur Hazrati Imom majmuasi hududidagi 10 gektar maydonda barpo etilgan. Bino uch qavatdan iborat bo‘lib, uzunligi 161 metr, eni 118 metrni tashkil etadi. Gumbazining balandligi 65 metr, umumiy foydalanish hududi esa 42 ming kvadrat metrdan ziyod hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek,

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat o‘tmish haqida hikoya qiladigan, balki tarix, bugun va kelajakni bog‘laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradigan aql-tafakkur markazi bo‘lishi zarur. Darhaqiqat, xalqning boy tarixi, madaniy-ma’rifiy merosi va islom sivilizatsiyasining insonparvarlik mohiyatini keng namoyon etishga qaratilgan. Kelajakka qadam tashlash uchun inson tarixni bilishi kerak. Kelajakda qanday yashashini tasavvur qilmoqchi bo‘lgan odam, avvalo o‘tmishini anglashi lozim. . Islom sivilizatsiyasi markazi ana shu imkoniyatni yaratadi. Bu haqiqiy ma’naviyat maskani. Bu yerdagi har bir detal ma’naviyat bilan sug‘orilgan. Yoshlar o‘z tariximizni bilishga ajdodlarimizning qoldirgan boy durdona asarlarini o‘rganishga yanada qiziqish ortishi shubhasiz.

Xulosa. Xulosa o‘rnida bir haqli savolga javob berib ketsak. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish qancha vaqt talab qiladi? Bu savolga O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Akmal Saidov shunday yozadi: “O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan 100 mingdan ortiq nodir qo‘lyozmalarga jahon ahli havas qiladi. Allomalarimizning noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha barchamizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlaydi. Albatta, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh-o‘n yil davom etmay, ancha katta va mashaqqatli davrni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, minglab iste’dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar nihoyatda zarur. Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda ulug‘ niyatlar bilan poydevori qo‘yilayotgan yangi Uyg‘onish davrining yorqin sahifalarga boy buyuk tarixi yaratilmoqda. Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekistonda san’at va madaniyat sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. San’at xalqning ma’naviy boyligi va milliy o‘zligini aks ettiruvchi muhim soha hisoblanadi. Shu sababli davlat tomonidan ushbu yo‘nalishda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, respublikada turli madaniy tadbirlar, festivallar va ko‘rgazmalar muntazam o‘tkazilmoqda. Masalan, teatr san’ati, kino sanoati va tasviriy san’at yo‘nalishlarida yangi loyihalar ko‘paymoqda. Bu tadbirlar yosh ijodkorlarga o‘z ishlarini keng ommaga taqdim etish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, xalqaro festival va tanlovlarda o‘zbek san’atkorlarining ishtiroki ortib bormoqda, bu esa mamlakatimiz madaniyatini dunyoga tanitishga xizmat qilmoqda. Yana bir muhim jihat shundaki, zamonaviy texnologiyalar san’at rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yosh ijodkorlar o‘z ijod namunalarini tez va oson tarqatish imkoniga ega bo‘lishdi. Bu esa ularning mashhur bo‘lishi va yangi imkoniyatlar topishiga yordam bermoqda. Shuningdek, davlat tomonidan ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida grantlar, stipendiyalar va turli mukofotlar joriy etilgan. Bu kabi rag‘batlantirish tizimi yoshlarni yanada ko‘proq ijod qilishga undaydi. Teatrlar, muzeylar va madaniyat markazlari ham yangilanib, zamonaviy texnika bilan jihozlanmoqda. Eng asosiysi, farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham O‘zbekistonda davlat va jamiyatning bosh maqsadi bo‘lib qoladi. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

References

1. Ibrohim Abdurahmonov, “Uchinchi Renessans – ilm-fan taraqqiyoti”. mininnovation.uz.
2. Akmal Saidov, Ochil Bo‘riyev, O‘zbekiston uchinchi renessans ostonasida. Tarixiy ildizlar va hozirgi zamon. uzhurriyat.uz
3. https://kun.uz/news/2026
4. https://uzbekistan.org.ua/uz